



AXBOROT-TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA JINOYAT SODIR ETISHGA IMKON BERGAN SHART-SHAROITLAR HAMDA ULARGA TAVSIYAVIY YECHIMLAR

Sharipov Asilbek Dilmurod o'g'li
IIV Akademiyasi 305-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda sodir etilayotgan kiberjinoatlarning eng yangi usullari, bu turdagi jinoyat sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlar, sabablar hamda ularga berilgan tavsiyaviy yechimlar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kiberjinoatchilik, Binance, Kibermakon, Bidget, Kucoin, Spam, Kriptovalyuta, Kriptobirja, Kiberxavfsizlik.*

Hech kimga sir emaski, XXI asr bu axborot-texnologiyalari asri, shu bilan birga ushbu sohadagi jinoyatlar salmog'i ko'paygan asr ham hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda bu turdagi jinoyatlar yig'indisi fanda kiberjinoatchilik¹ deb ataladi.

Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar an'anaviy turdagi jinoyatlardan keskin farq qiladi. Jumladan:

1. Ushbu turdagi jinoyatlarda hodisa joyi, jinoyat sodir etilgan muayyan hudud mavjud emas. Barcha bu turdagi ijtimoiy xavfli qilmishlar kibermakonda² sodir etiladi.
2. Shaxs jinoyatni bevositda chet davlat hududidan turib sodir etishi ham mumkin. Chunki virtual muhitga dunyoning istagan chekkasidan turib kirish mumkin. Aynan shu sababli ham dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlarida ham kiberjinoatlarning fosh etilish darajasi juda ham past.
3. Anonimlik yuqori darajada ekanligi. Jinoyatlarning katta qismi anonim virtual muhitda sodir etilishi, ya'ni maxsus cheklavlarni chetlab o'tib taqiqlangan sahifalarga tashrif buyurish, bu orqali har xil turdagi giyohvand vositalar, taqiqlangan qurollar sotib olishga imkoniyat mavjudligi, qolaversa bemaolol anonimlikni saqlagan holda Black hat³ kurslarini o'rganish mumkinligi.
4. Ushbu turdagi jinoyatlarni mutlaqo begona shaxs nomidan sodir etish mumkin. Masalan noqonuniy bank kartalari oldi-sotdisi, bunda kiberjinoatchilar talon-taroj qilingan mulkni umuman boshqa shaxsning nomida bo'lgan ammo kiberfiribgarining foydalanuvida bo'lgan bank kartasiga o'tkazadi hamda xuddi shunaqa

¹ Kiberjinoatchilik - axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi. (<https://lex.uz/uz/docs/-5960604>)

² Kibermakon - axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit (<https://lex.uz/uz/docs/-5960604>)

³ Black hat - o'z foydasi uchun yoki yomon niyatda kompyuter xavfsizligi tizimini ishg'ol qiluvchi buzg'unchi xaker (https://uz.wikipedia.org/wiki/Black_hat)



bir nechta bank kartalariga o'tkazib, kriptovaluta birjasi (Binance⁴, Bitget⁵, Kucoin⁶) orqali umuman jinoyatga aloqasi bo'lmagan kriptovalyuta oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi shaxslar orqali kriptovalyutalar sotib olishadi. Bu esa jinoyatchilar uchun anonimlikni saqlaydi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga mutlaqo boshqa shaxslarni yo'naltirib qo'yadi.

Statistikaga e'tibor bersak hozirda spammerlar (spam⁷ xabar yuboruvchilar) soatiga 50 ming dollar ishlaydilar. Elektron pochta firibgarlarining oddiy insonlar bilan muloqotlari juda muhim kanal bo'lib qoldi, — deb ta'kidlaydi G Data Security Labs xavfsizlik laboratoriyasi rahbari Ralf Bentsmyuller. — Xatlarning 80 foizdan ortig'i — bu spam. Ilgari jinoyatchilar viruslar bilan zararlangan xatlarga ilovalardan foydalangan edilar, endi ular yanada ayyorlik qiladilar, turli yolg'onlar bilan zarar tarqatuvchi saytlarga kirish va ularning shaxsiy ma'lumotlarini yetkazishga majbur etadilar. Shuning uchun har qanday xabar, hatto tanish bo'lgan jo'natuvchilar xabari ham katta xavfga ega bo'lishi mumkin. Jinoyatchi ko'pincha spamni u tomonidan buzilgan elektron qutilardan jo'natadi. Spam tarqatilishi — yashirin kiberbozorning eng keng tarqalgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, deyiladi G Data xabarida. Masalan, 2010-yilning faqat to'rtinchi choragida kuniga 145 mlrd. xabarlarga teng butun internet-trafikning 83 foizdan ortig'i spam bo'lgan. Bunday ommaviylikning sababi spam tarqatishning arzonligi bo'lmoqda — 1 mln. xabar uchun \$399 dan to \$800 gacha sarflanadi.

Ayniqsa Toshkent shahrida fuqarolarning bank kartalaridagi pullarini aldov yo'llari bilan o'zlashtirish holatlari keskin oshdi. 2022-yilda bunday kiberjinoyatlar oqibatida toshkentliklar kamida 45,2 mlrd so'm zarar ko'rgan. Bu pullarning bor-yo'g'i 9,2 mlrd so'mga yaqini undirib berilgan. Qolgan barcha summalar esa kriptovalyutalar birjalari orqali chet el davlat hudidiga chiqib ketgan. 2022 yilda Toshkentda axborot texnologiyalari yordamida 4332 ta yoki 2021 yilga (2281 ta) nisbatan qariyb 2 baravar, 2020 yil bilan (106 ta) taqqoslaganda esa 40 baravar ko'p kiberjinoyat sodir etildi. Toshkentda ayni vaqtda mln ga yaqin aholi muqim, boshqa viloyatlardan kelib-ketishi bilan 4,5 mlnga yaqin aholi istiqomat qiladi. Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlar esa 2022-yilda 100 ming aholiga nisbatan 96 tadan to'g'ri kelgan bo'lsa hozirda ya'ni 2023-2024-yilga kelib bir necha o'n barobar oshib ketdi. 2023-yilning o'zida Toshkent shahar hudidan turib kiberjinoyatlardan jabrlangan shaxslarga jami bo'lib 380 milliard so'mdan ortiq moddiy zarar yetkazilgan. Jinoyatlarning ochilish

⁴ Binance – bu kriptovalyuta birjasi bo'lib, u turlicha kriptovalyutalar bilan savdo qilish platformasidan iborat. 2021-yil aprel oyi holatiga Binance savdo hajmi bo'yicha dunyodagi eng yirik kriptovalyuta birjasi bo'lib hisoblangan (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Binanc>)

⁵Bitget - kripto almashinuvi va raqamli aktivlar savdosi platformasi bo'lib, u 2018-yilda Singapurda joylashgan shtab-kvartirasida tashkil etilgan. (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Bitget>)

⁶ KuCoin – TU Overall Score bahosi 10 dan 2.91 ga teng bo'lgan past xavf darajasiga ega kriptovalyuta birjasi (<https://tradersunion.com/uz/brokers/crypto/view/kucoin>)

⁷ «Spam» termini yangi mazmunida (jonga teguvchi elektron tarqatmalar, pochta chiqindilari) 1993-yilda paydo bo'ldi. Usenet kompyuter tarmog'i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferensiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo'natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda — «spam» degan nom topdilar. (<https://infocom.uz/spam-va-fishing-spam-nima>)



darajasi esa an'anaviy turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha past, deyarli 30 foizga yaqin, ya'ni har 10 tadan 3 taginasi ochilmoqda.

Bunday jinoyatni sodir etuvchi jinoyatchilar asosan aholining ishonuvchanligidan foydalanib, fuqarolarni turli yo'llar bilan aldaydi va telefonlarga kelgan hech kimga berilmaslik haqida ogohlantirish SMS xabari bilan birga keladigan "maxsus kod" raqamlarini egallab oladi.

1. Masalan, telefonda rusiyzabon shaxs o'zini **bank yoki mobil to'lov tizimi xodimi deb tanishtirishi** mumkin. U fuqaroning bank plastik kartasiga xakkerlar tomonidan kiberhujum uyushtirayotgani va shunga o'xshash boshqa yolg'on ma'lumotlarni aytib ishontiradi. Keyin uning kartasi haqidagi ma'lumotlarni olib, pullarni o'zlashtiradi.

2. **Bank yoki mobil to'lov tizimlarining soxtalashtirilgan saytlari** orqali "Foizsiz onlayn kredit" va shunga o'xshash odamlarga qiziq (feyk) xabarlar Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan turli havolalar kela boshlaydi.

3. Jinoyatchilar **OLX platformasida** uyali telefon apparati, dam olish maskanlari yoki boshqa buyumlarni arzon narxlarda savdoga qo'yish orqali fuqarolarning qiziqishini o'yg'otishi mumkin.

4. Internet do'konlarining **soxtalashtirilgan ilovalarida** fuqarolarni aldov yo'li bilan ro'yxatdan o'tkazish ham hozirgi jinoyat usullaridan biri hisoblanadi.

5. **Davlat tomonidan moddiy yordam puli berilayotgani** haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabar kela boshlaydi. Hozirda prezidentning soxtalashtirilgan saytlari orqali fuqarolarni "chuv tushirish" ommalashmoqda.

6. Ijtimoiy tarmoqlarda **o'zini treyderlik bilan shug'ullanuvchi shaxs deb tanishtirib**, pul mablag'larini ikki va undan ortiq barovar ko'paytirib berish haqidagi aldovlari bilan fuqarolarning ishonchiga kirish orqali ularning pullari o'zlashtirilmoqda.

7. Jinoyatchilar **Telegram orqali viloyatlararo kirakashlik bilan shug'ullanuvchi xaydovchilarning ishochiga kirib, ularni aldashi mumkin**. Misol uchun: viloyatlararo qatnovchi taksichilarning Telegram guruhiga noma'lum shaxs uning plastik karta hisobiga pul yuborishi to'g'risida aytib, manzilga yetib kelganda uni naqd ko'rinishda berishga ishontiradi.

8. **PUBG, WORLD OF TANK internet o'yinlarida kuchaytirilgan akkauntni** savdoga qo'yish bilan yoshlarning ishonchiga kirayotganlar ham mavjud.

9. **Ijtimoiy tarmoqlarda "arzon tilla buyumlar sotilishi to'g'risida"gi yolg'on e'lonlarni** qo'yish orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning mablag'larini o'zlashtirayotganlarni ham misol keltirish mumkin.

Profilaktik chora-tadbirlar, ya'ni aholini yangi paydo bo'layotgan kiberjinoyatlarning yangi usullaridan doimiy ravishda xabardor qilib turish bu turdagi jinoyatlarni sonini keskin kamaytirishga ancha katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari banklarning onlayn mikroqarz berish tizimiga ayrim qo'shimcha, o'zgartirishlar kiritish ham kiberfiribgarlarga aldanib, onlayn mikroqarz olib ushbu mablag'laridan ayrilayotgan janbrlanuchilar sonini kamaytrishga yordam beradi. Jumladan, mikroqarzlarga ariza onlayn shaklda topshirilsa ham ammo ushbu



mikroqarzni shaxsni o'zi bevosita bankning o'ziga borib olish tizimini joriy etish. Bunda jabrlanuvchi kiberfiribgarga aldanib onlayn mikroqarz olib qo'ygan taqdirda ham ushbu pullarni bevosita bankka borib olmasa tasarrufiga ola olmaydi. Bundan tashqari noqonuniy bank kartalari savdosi bilan shug'ullanuchi shaxslarga javobgarlik joriy etish. Aynan mana shu turdagi faoliyatni o'zini kundalik vazifasiga aylantirib olgan ayrim turdagi shaxslar tufayli talon-taroj qilingan mol-mulk O'zbekiston Respublikasi hudidan chiqib ketmoqda. Bundan tashqari 1999-yil 9-iyulda qabul qilingan Belorussiya davlatining jinoyat kodeksining 222-moddasi aynan shu turdagi munosabatlarga bag'ishlangan. Unga ko'ra "Sotish maqsadida ishlab chiqarish yoki qalbaki bank to'lov kartalari, boshqa to'lov vositalari va to'lov vositalarini sotish, shuningdek bank to'lov kartasi rekvizitlarini yoki autentifikatsiya ma'lumotlarini noqonuniy tarqatish g'arazli yoki boshqa past niyatlarda sodir etilsa ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki oqibatlariga qarab olti yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi. Agar ushbu qilmish takroran, uyushgan guruh yoki ko'p miqdorda zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilsa besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi"⁸

O'z o'rnida, dunyo mamlakatlari mazkur dolzarb muammoga qarshi kurashish maqsadida 2001-yil 23-noyabrda "Kiberjinoyat to'g'risida"gi Budapesht konvensiyasi qabul qilindi. Hozirda ushbu konvensiyaga 40 ga yaqin davlatlar a'zo bo'lgan. Bundan tashqari, 2013-yil 17- yanvarda Gaagada kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Yevropa markazi rasman ochildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI "KIBERXAVFSIZLIK TO'G'RISIDA" (<https://lex.uz/uz/docs/-5960604>)
2. (<https://uz.wikipedia.org>)
3. (<https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>)
4. (<https://tradersunion.com>)
5. (<https://infocom.uz>)
6. O'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. (<https://lex.uz/acts/-111453>)

⁸(<https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>)